



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI- YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING HUQUQIY POYDEVORI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17978124>

Karimov Sherzod Abdumalik o'g'li

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

ksherzod634@gmail.com +998-951112806

Umarov Murodjon Mamatkarim o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

murodbekumarov0512@gmail.com +998-946745040

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Maqolada Konstitutsiya orqali davlat boshqaruvi tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlari, shuningdek, huquqiy barqarorlikning yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi roli o'rganilgan. Shuningdek, maqolada konstitutsiyaviy islohotlarning xalqaro tajribalar bilan solishtirilishi va zamonaviy demokratik tamoyillar bilan uyg'unligi ham muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari konstitutsiyaviy huquqiy poydevor sifatida yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga qo'shgan hissasini amaliy jihatdan yoritadi.*

KALIT SO'ZLAR: *O'zbekiston Respublikasi, Konstitutsiya, huquqiy poydevor, davlat boshqaruvi, fuqarolarning huquqlari, demokratik islohotlar, huquqiy barqarorlik, yangi O'zbekiston, konstitutsiyaviy islohotlar.*

КОНСТИТУЦИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН - ПРАВОВОЙ ФУНДАМЕНТ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ: *В данной статье научно анализируется роль и значение Конституции Республики Узбекистан в политическом, социальном и экономическом развитии страны. В статье исследуются через призму Конституции система государственного управления, механизмы защиты прав и свобод граждан, а также роль правовой стабильности в развитии нового Узбекистана. Кроме того, обсуждается сопоставление конституционных реформ с международным опытом и их соответствие современным демократическим принципам. Результаты исследования практическим образом освещают вклад Конституции как правового фундамента в устойчивое развитие нового Узбекистана.*



КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Республика Узбекистан, Конституция, правовой фундамент, государственное управление, права граждан, демократические реформы, правовая стабильность, новый Узбекистан, конституционные реформы.

CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN - THE LEGAL FOUNDATION OF THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT: This article provides a scholarly analysis of the role and significance of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the political, social, and economic development of the country. The article examines, through the lens of the Constitution, the system of state governance, mechanisms for protecting citizens' rights and freedoms, and the role of legal stability in the development of New Uzbekistan. Furthermore, the article discusses the comparison of constitutional reforms with international experiences and their alignment with modern democratic principles. The research findings practically highlight the contribution of the Constitution as a legal foundation to the sustainable development of New Uzbekistan.

KEYWORDS: Republic of Uzbekistan, Constitution, legal foundation, state governance, citizens' rights, democratic reforms, legal stability, New Uzbekistan, constitutional reforms.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng davlatning huquqiy tizimini shakllantirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va demokratik institutlarni rivojlantirish konstitutsiyaviy asoslarni ta'minlash bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Konstitutsiya - bu faqat davlatning oliy qonuni sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishini ta'minlovchi huquqiy poydevor hamdir. Zamonaviy davrda, yangi O'zbekiston taraqqiyotida Konstitutsiyaning o'рни nafaqat huquqiy me'yorlarni belgilash, balki fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish va jamiyatdagi adolatli boshqaruvni ta'minlash bilan bog'liq. Shu ma'noda, Konstitutsiya davlatning ijtimoiy

shartnomasi sifatida jamiyatning barcha qatlamlariga huquqiy kafolatlarni taqdim etadi. Konstitutsiyaning tarixiy rivojlanishini tahlil qilish orqali uning bugungi kundagi ahamiyatini chuqurroq anglash mumkin[1].

O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi Konstitutsiyalari, xususan 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya, davlatning huquqiy asoslarini belgilash bilan bir qatorda, demokratik boshqaruv prinsiplarini, bo'linish va muvozanat tamoyillarini, shuningdek, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlaydi[2]. Bu hujjat orqali davlatning barcha organlari o'z faoliyatini qonuniy me'yorlar doirasida olib boradi va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlari himoya qilinadi. Shu bilan birga, Konstitutsiya



fuqarolar va davlat o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat va huquqiy majburiyatlarni tartibga soladi.

Yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasida Konstitutsiya muhim vosita hisoblanadi. Davlat rahbarligi va boshqaruvning demokratik mexanizmlari, ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolarning siyosiy ishtiroki Konstitutsiya orqali mustahkamlanadi[3]. Shu maqsadda, so'nggi yillarda olib borilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar O'zbekistonning ichki va tashqi siyosiy muhitiga moslashgan holda, huquqiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Bu jarayon, ayniqsa, fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurash va davlatning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Konstitutsiyaning xalqaro tajribalar bilan solishtirilishi ham uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, Yevropa davlatlarida qabul qilingan konstitutsiyaviy normalar va demokratiya institutlarining rivojlanish tajribasi O'zbekistonning huquqiy islohotlarini mukammallashtirishga asos bo'lishi mumkin. Buning natijasida, yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanishi nafaqat ichki ijtimoiy-iqtisodiy omillarga, balki xalqaro huquqiy normalar bilan uyg'unlashgan demokratik tamoyillarga ham tayanadi.

Mamlakatning barqaror rivojlanishi va fuqarolarning huquqiy kafolatlarini ta'minlashda Konstitutsiyaning roli beqiyosdir[4]. Huquqiy me'yorlar

jamiyatda adolatni ta'minlash, ijtimoiy tenglikni kuchaytirish va davlat organlarining faoliyatini tartibga solishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, Konstitutsiya fuqarolar va davlat o'rtasidagi ijtimoiy kontrakt sifatida qaraladi, unda fuqarolarning huquqlari va majburiyatlari aniq belgilangan, davlat esa bu huquqlarni ta'minlash mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi. Bu jarayon yangi O'zbekistonning siyosiy va ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Konstitutsiya orqali davlatning huquqiy va siyosiy islohotlar strategiyasi ham belgilab beriladi. Masalan, sud tizimi mustaqilligi, qonun ustuvorligi, fuqarolarning siyosiy faolligi va boshqa demokratik institutlar konstitutsiyaviy kafolatlar asosida amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiya nafaqat huquqiy me'yorlarni belgilash, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va davlatning demokratik rivojlanishini mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Yuqorida qayd etilgan jihatlar asosida, ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan yoritishga qaratilgan[5].

Tadqiqot davomida Konstitutsiya orqali davlat boshqaruvining demokratik mexanizmlari, fuqarolarning huquqiy kafolatlari va xalqaro huquqiy tajribalar bilan solishtirish orqali yangi O'zbekiston taraqqiyotining huquqiy poydevori shakllantiriladi.



Adabiyotlar tahlili: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining huquqiy poydevor sifatidagi roli va uning yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi ahamiyatini tahlil qiluvchi ilmiy adabiyotlar doirasida, ayniqsa, konstitutsion nazariya hamda demokratik islohotlar jihatidan muhim hissa qo'shgan chet ellik olimlar - Andrew Arato va A.Stepan va C.Skach ishlarini ko'rib chiqish lozim. Birinchidan, Andrew Arato konstitutsiya yaratish nazariyasi bo'yicha o'ziga xos g'oyalarni ilgari surgan. U "post-suveren" konstitutsiya yaratish modelini taklif qilib, avtokratik rejimlardan demokratik konstitutsiyaga o'tishda keng ijtimoiy ishtirokchanlik va shaffoflik tamoyillarini asosiy unsurga aylantiradi.

Arato nazariyasiga ko'ra, konstitutsiyaviy jarayon ikki bosqichda - birinchi bosqichda turli siyosiy va ijtimoiy aktorlar o'rtasidagi muzokaralar (round-table) orqali kelishuvga erishiladi; ikkinchi bosqichda esa saylangan milliy konstitutsiyaviy majlis orqali yakuniy konstitutsiya yaratiladi[6]. Bu yondashuv u demokratik legimitlikni mustahkamlashda va konstitutsiyaning barqarorligini ta'minlashda muhimligi bilan ajralib turadi. Arato modelida, "post-suveren" konstitutsiya yaratish jarayoni konstitutsiyaning faqat bir lahzalik huquqiy hujjat emas, balki ijtimoiy shartnoma ekanligini ko'rsatadi. Bu shartnoma, Arato ta'kidlashicha, fuqarolar, siyosiy partiyalar va boshqa aktorlar o'rtasida o'zaro ishonch va kelishuv asosida shakllanadi, va natijada konstitutsiya faqat yuqoridan yuklangan

hujjat emas, balki ijtimoiy legitimlikka ega bo'lgan huquqiy maqomga erishadi.

Arato nazariyasi yangi O'zbekiston konstitutsiyasining demokratik va ishtirokchi tuzilishini tushunishda katta ilmiy ahamiyatga ega. Ikkinchidan, Alfred Stepan va Cindy Skachning "Constitutional Frameworks and Democratic Consolidation: Parliamentarianism versus Presidentialism" nomli maqolasi demokratik mustahkamlik (democratic consolidation) va konstitutsion tuzilmalar (parlamentarizm va prezidentizm) o'rtasidagi murakkab munosabatni yoritadi. Ular empirik tadqiqotlar asosida shunday xulosaga keladiki: parlamentli model demokratik institutlarni konsolidatsiyalashga ko'proq imkon beradi. Bu modelda hukumat koalitsiyasining barqarorligi, ko'ppartiyali siyosiy tizimda ishonch va hamkorlik muhitining shakllanishi, shuningdek, ijro rahbariyatining partiyaga bog'liqligi va uni demokratiyaning barqarorligi uchun javobgar qiladi[7]. Ular shuningdek, prezidentlik modeliga xos muammolarni ko'rsatib, uni demokratik konsolidatsiya uchun kamroq qulay deb hisoblaydi: masalan, hokimiyatni markazlashtirish, konstitutsiyaviy chegaralarning bo'shligi, va muqarrar ravishda konstitutsiyani manipulyatsiyalash ehtimoli.

A.Stepan va C.Skach nazariyasining yangi O'zbekiston konteksti uchun ahamiyati shundaki, davlat konstitutsion modeli tanlanayotganda konstitutsiyaning mustahkamligi, davlat institutlarining



hamkorlik potentsiali va demokratik institutlarning uzoq muddatli barqarorligi inobatga olinishi kerak. Ularning tahlili O'zbekiston konstitutsiyasining shakllantirilishi va islohoti jarayonida "qaysi boshqaruv modeli mamlakat uchun eng mos keladi" degan strategik savollarni ilmiy asosda yoritishda foydali bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, A.Stepan va C.Skachning yondoshuvi konstitutsiya nafaqat huquqiy hujjat, balki siyosiy va ijtimoiy institutlar tizimi ekanligini ko'rsatadigan tahliliy ramka beradi[8]. Bu maqola O'zbekiston konstitutsiyasining huquqiy poydevorini baholashda, ayniqsa uning institutlararo muvozanati va demokratik konsolidatsiya yo'lida barqarorligiga qaratilgan ilmiy diskursga qo'shimcha rag'bat beradi. Umuman olganda, Andrew Arato bilan A.Stepan va C.Skachning ishlari bir-biri bilan uzviy bog'langan: bir tomondan Arato ishtirokchi, legimitli konstitutsiya yaratish modelini taklif etsa, ikkinchi tomondan A.Stepan va C.Skach konstitutsiyaviy tuzilmalar tanlashining uzoq muddatli demokratik konsolidatsiyaga ta'sirini tahlil qiladi. Bu ikki yondoshuv, yashayotgan ijtimoiy va siyosiy sharoitda yangi O'zbekiston konstitutsiyasining huquqiy poydevori sifatida roli va istiqbolini chuqurroq tushunishda ilmiy asos beradi.

Metodologik qism: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi rolini o'rganish jarayonida tahliliy-sintez, solishtirma-huquqiy va tarixiy metodlar birgalikda

qo'llanildi; tahliliy-sintez metodi konstitutsiyaning huquqiy va siyosiy mazmunini chuqur tahlil qilish imkonini berdi, solishtirma-huquqiy metod orqali O'zbekiston konstitutsiyasining demokratik institutlar va xalqaro konstitutsiyaviy tajribalar bilan uyg'unligi o'rganildi, tarixiy metod esa mustaqillikdan keyingi konstitutsion islohotlar jarayonini va ularning yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi ahamiyatini konseptual kontekstda yoritishga xizmat qildi. Shu tarzda, metodlar uyg'unligi maqolaning ilmiy asoslangan, tizimli va kompleks tahlilini ta'minladi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi O'zbekiston taraqqiyotining huquqiy poydevori sifatida nafaqat davlat boshqaruvi tizimini tartibga soladi, balki fuqarolarning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash, demokratik institutlarni shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi; tahliliy-sintez va solishtirma-huquqiy metodlar asosida olingan xulosalar shuni ko'rsatdiki, konstitutsiya demokratik boshqaruv mexanizmlarini samarali tartibga soladi, fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy ishtirokini kuchaytiradi hamda xalqaro konstitutsiyaviy tajribalar bilan uyg'unlashgan holda barqaror rivojlanish yo'lini belgilaydi, shuningdek, davlat institutlari o'rtasidagi muvozanat, qonun ustuvorligi va huquqiy barqarorlikning ta'minlanishi orqali yangi O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va



iqtisodiy taraqqiyotini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muhokama: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi roli bo'yicha Andrew Arato va A.Stepan va C.Skachning ilmiy qarashlarini solishtirish muhim ahamiyatga ega. Arato konstitutsiya jarayonini ijtimoiy ishtirok va legimitlik nuqtai nazaridan tahlil qilib, "post-suveren" modelini taklif etadi. Uning fikricha, konstitutsiya faqat yuqoridan yuklangan huquqiy hujjat emas, balki turli ijtimoiy va siyosiy aktorlar o'rtasidagi muzokaralar orqali shakllangan ijtimoiy shartnoma bo'lishi lozim.

Arato demokratiya va konstitutsiyaviy barqarorlikni ijtimoiy kelishuv orqali mustahkamlashni nazarda tutadi va bu jarayonda fuqarolarning faol ishtiroki, siyosiy partiyalar va boshqa institutlarning integratsiyasi muhim deb hisoblaydi. Boshqa tomondan, Stepan va Skach konstitutsion tizimlar samaradorligini, xususan demokratik konsolidatsiya nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Ular parlament tizimi demokratik institutlarni konsolidatsiyalashda samaraliroq ekanligini, prezidentlik tizimi esa hokimiyat markazlashuvi va konstitutsion manipulyatsiyalarga moyilligini ko'rsatadi. Shu yondashuv, ularning fikricha, mamlakat konstitutsiyasini shakllantirishda institutlararo muvozanat, hukumatning partiyalar bilan hamkorligi va qonun ustuvorligi tamoyillarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur ikki

yondashuv o'zaro qisman farqli bo'lsa-da, ular yangi O'zbekiston konstitutsiyasining mazmunini tahlil qilishda uzviy bog'langan[9].

Arato fuqarolar ishtiroki va legimitlikka urg'u berar ekan, A.Stepan va C.Skach institutsional samaradorlik va demokratik barqarorlikni ta'kidlaydi. Shu tariqa, Arato modelida konstitutsiya jarayoni dinamik, ijtimoiy kelishuvga asoslangan bo'lsa, A.Stepan va C.Skach modeli institutlararo muvozanat va siyosiy strukturaga tayanadi. Bu ikki yondashuvning birgalikdagi tahlili O'zbekiston konstitutsiyasining demokratik tamoyillarga muvofiqligi va barqarorligini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Muhokama shuni ko'rsatadiki, yangi O'zbekiston konstitutsiyasi ijtimoiy legimitlik va institutlararo barqarorlikni uyg'unlashtirishga harakat qilgan holda, Arato, A.Stepan va C.Skach nazariyalarini amaliy jihatdan birlashtiradi. Arato yondoshuvi fuqarolar va siyosiy aktorlar o'rtasidagi muzokaralarga asoslangan ishtirokchilikni, Stepan va Skach esa hukumat institutlari va demokratik mexanizmlar o'rtasidagi muvozanatni ta'kidlaydi[10]. Shu tarzda, yangi O'zbekiston konstitutsiyasi demokratik boshqaruv, huquqiy barqarorlik va siyosiy konsolidatsiyani birlashtirgan kompleks huquqiy poydevor sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat mamlakatda ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolarning siyosiy faolligini ta'minlashda asosiy vosita ekanligini



ko'rsatadi, shuningdek, xalqaro demokratik tajribalar bilan uyg'unlashgan holda davlat boshqaruvining samaradorligini oshiradi.

Xulosa: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi huquqiy poydevor sifatidagi roli ilmiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Konstitutsiya davlat boshqaruvi tizimini tartibga solish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, demokratik institutlarni mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili Andrew Arato va A.Stepan va C.Skachning konstitutsiyaviy jarayonlar va demokratik konsolidatsiya bo'yicha nazariy qarashlarini solishtirish orqali amalga oshirildi, bu esa yangi O'zbekiston konstitutsiyasining ijtimoiy legimitlik va institutlararo muvozanat tamoyillariga tayanishini yoritdi. Metodologik jihatdan tahliliy-sintez, solishtirma-huquqiy va tarixiy metodlar qo'llanilib, Konstitutsiyaning huquqiy, siyosiy va ijtimoiy mazmuni chuqur ilmiy asosda o'rganildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, Konstitutsiya nafaqat ichki siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki xalqaro demokratik tajribalar bilan uyg'unlashgan holda yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasini ham belgilaydi. Muhokama bo'limida Arato, A.Stepan va C.Skachning nazariyalari bir-biri bilan uzviy bog'langan holda tahlil qilinib, yangi O'zbekiston konstitutsiyasining ijtimoiy legimitlik, institutlararo muvozanat va demokratik konsolidatsiya tamoyillariga tayanishi aniqlandi. Shu tariqa, Konstitutsiya nafaqat huquqiy hujjat, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma, demokratik boshqaruvni ta'minlovchi va barqaror rivojlanish yo'lini belgilovchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, maqola yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va huquqiy poydevorini tushunishda Konstitutsiyaning markaziy o'rni va uning mamlakatning demokratik, ijtimoiy va siyosiy barqarorligidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan yoritdi, shuningdek, kelajakdagi konstitutsiyaviy islohotlar va huquqiy rivojlanish uchun konseptual asos yaratdi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Topildiyev, O. R. Current research journal of..., 2021-masterjournals. com. The process of spiritual education of youth, 78-82.
2. Elbek G., Shohjalil I. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi //Oriental journal of academic and multidisciplinary reasearch. - 2025. - T. 3. - №. 1. - C. 22-24.
3. Topildiyev, O. R. (2015). The role of the family, mahallas and educational institutions in the education of youth. Society: sociology, psychology, pedagogy, 3, 29-30.
4. Shonazarovna M. V. Konstitutsiya baxtimiz qomusi //Евразийский журнал академических исследований. - 2021. - Т. 1. - №. 9. - С. 79-81.
5. Топилдиев, О. Р. (2011). Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ёшларнинг тутган ўрни (1991-2008 йй.). Тарих фан. ном. дисс. Т.: ЎЗМУ.
6. Hasanov A. A. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi: inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini ta'minlash. fuqarolar majburiyatlari //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. - 2025. - T. 1. - №. 8. - C. 225-228.
7. Топилдиев, О. Р. (2015). Роль семьи, махалли и образовательных учреждений в воспитании молодежи. Общество: социология, психология, педагогика, (3), 29-30.
8. Gafurovna A. N. et al. O'zbekiston respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasi qabul qilinishi //pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. - 2025. - T. 12. - №. 01. - C. 59-63.
9. Yunusov O., Xolmurodova S. Konstitutsiya-erkin va farovon hayot garovi //Найка и инновация. - 2025. - Т. 3. - №. 1. - С. 102-105.
10. Farhod F., Otabek I. O'zbekiston konstitutsiyasining jamiyatdagi roli va uning fuqarolik jamiyatiga ta'siri //models and methods for increasing the efficiency of innovative research. - 2025. - T. 4. - №. 44. - C. 367-370.